




JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>



STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY

Mansur Djurayev

Gulistan State University
 Gulistan, Uzbekistan

Jahangir Husenov

Student
 Gulistan State University
 Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: geography, science, applied geography, water, Uzbekistan.

Abstract: This article discusses and analyzes the topic of geography research, conflicts and solutions in applied geography.

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

GEOGRAFIYA FANIDAN TADQIQOTLAR, AMALIY GEOGRAFIYADAGI ZIDDIYATLLAR VA YECHIMLAR

Mansur Djurayev

Guliston davlat universiteti
 Guliston, O'zbekiston

Jahongir Husenov

Talaba
 Guliston davlat universiteti
 Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: geografiya, fan, amaliy geografiya, suv, O'zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fanidan tadqiqotlar, amaliy geografiyadagi ziddiyatlar va yechimlar mavzusi muhokama va tahlil qilingan.

ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ГЕОГРАФИИ, КОНФЛИКТЫ И РЕШЕНИЯ В ПРИКЛАДНОЙ ГЕОГРАФИИ

Мансур Джураев

Гулистанский государственный университет
 Гулистан, Узбекистан

*Джахангир Гусенов**Студент**Гулистанский государственный университет**Гулистан, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова:	география, естествознание, прикладная география, вода, Узбекистан.	Аннотация:	В данной статье обсуждается и анализируется тема географических исследований, противоречий и решений в прикладной географии.
------------------------	--	-------------------	--

KIRISH

Hammamizga ma'lumki geografiya fani juda qiziq va keng qamrovli fanlardan biri hisoblanib, tadqiqotchilar, sayyohlar, olimlar va astranomlar yer yuzasi va osmonning turli kengliklarida keng ko'lamdagi ilmiy izlanish ishlarini olib borishgan. Natijada fanning rivojiga uning kelajakda gurrak yashnashiga ulkan hissan qo'shishgan. Izlanishlar natijasida qator yangiliklar qilib, ayrim qoidalarni ham o'ylab topishgan. Quyida ushbu izlanishlar natijasida yuzaga kelgan va biz amaliy ishlarda juda ko'plab ishlatadigan ayrim qoidalarni keltirib o'tamiz.

ASOSIY QISM

1. Troposferada har 1000 metr tepaga ko'tarilsa havo harorat 6°C dan, 100 metrda esa 0,6°C dan pasayib borishi;
2. Normal atmosfera bosimi 760 mm.sim.ust ekanligi va undan har 1000 metr yuqoriga ko'tarilsa havo bosimi 100 mm.sim.ust. ga, 100 metrda esa 10 mm.sim.ust. ga kamayib borishi;
3. Yer ostiga har 1000 metr tushsa 33°C ga ko'tarilib borishi;
4. Suvda har 1000 metr tushsa harorat o'rta hisobda 2°C dan pasayib borishi;
5. Suvning zichligi har 1000 m chuqurlikda 0,005 g/sm³ ortib borishi;
6. Okean suvining zichligi uning yuza qismida 35 promille sho'rlikda 1,025g/sm³ ni tashkil etishi. [1, 107-b]

Va shu kabi qoidalar mavjud, ular doimiy ekanligini ko'rsatdi.

Ammo fanning ichiga chuqurroq kirib borar ekanmiz, uning naqadar buyuk va mashqqatli yo'l ekanligini ko'ramiz. Fandan turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar, muammo va kamchiliklar borligini, bir kitobdagi ma'lumotlar ikkinchi bir kitobga yoki ikki davlat olimlari qo'llaydigan ma'lumotlar bir biriga to'g'ri kelmasligini ham ko'rishimiz mumkin. Quyida esa geografiyadagi amaliy ishlarda bir-biridan farq qiladigan ikki xil ayrim xolatlarni keltirib o'tamiz:

1. O'zbekiston geograflari orasida atmosfera bosimi 10 metr yuqoriga ko'tarilsa 1 mm.sim.ust.ga kamayishi ma'lum. Lekin, fizika darsliklarida yoki 6-sinflar uchun mo'ljallangan „Tabiiy fanlar“ darsligida atmosfera bosimi har 12 metr yuqoriga ko'tarilsangiz 1 mm.sim.ust.ga

kamayishi aytilgan. [3, 113-b]. Rus adabiyot va saytlariga ishonadigan bo'lsak bu ko'rsatgich 10 va 12 metrda emas, balki, 10,5 metrda 1 mm ga pasayishi aytilgan. [5].

2. Har 100 m ga chuqurlikka tushgan sari haroratning ko'tarilib borishiga – **Geotermik gradient** deyiladi. Hammamizga ma'lumki yer ostiga har 1000 m tushsak harorat $+33^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilib boradi. Ammo, Q. Bahromov va G. Halimovalarning „Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari“ kitobidan ma'lumki geotermi bosqich 33 metrda 1°C deb qabul qilingan. [1, 71-b]. Bundan ko'rinib turibdiki harorat har 1000 metrda $30,3^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilib boradi.

Ya'ni:

$$33\text{ m} \text{ ————— } 1^{\circ}\text{C}$$

$$1000\text{ m} \text{ ————— } X^{\circ}\text{C}$$

$$X = 1000 \cdot 1 : 33$$

$$X = 30,3^{\circ}\text{C}$$

3. Ko'rish gorizontini aniqlashga doir ikki xil usulini ko'pchilik bilsa kerak. Odamning o'rtacha ko'rish qobiliyati 3,86 deb berilgan va $d = 3,86 \cdot \sqrt{h}$ formula yuzaga kelgan. Lekin, 5-sinflar uchun mo'ljallangan atlasda inson 10000 metr tepada 357 km masofani ko'radi deyilgan. [2, 5-b]. bundan ko'rinib turibdiki, insonning o'rtacha ko'rish qobiliyati 3,57 ekan.

Ya'ni:

$$d = 3,57 \sqrt{10000}$$

$$d = 3,57 \cdot 100$$

$$d = 357\text{ km}$$

Yana bir geografiya tizimida nuqsonli jihatlarimizdan biri maktab davrida amaliy ishlarni to'g'ri tushuntirib berilmaslik, yoki, o'qituvchilarning o'zlari ham geografiyadan masala va mashqlarni tushunmasligi, tushunsa ham masala va mashqlarni o'quvchilarga qiyin, tushunarsiz usullardan tushuntirishidadir.

Quyida amaliy geografiyada yechiladigan ayrim masala va mashqlar yechimi bilan tushuntirib berilgan:

1. Gulistonda havo harorati $+36^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, bu shahardan 2,5 km balanddagi havo haroratini necha gradus bo'ladi.

Yechish:

Balandlikni o'zgarish qiymatiga ko'paytirib, yer yuzasidagi haroratdan chiqqan natijani ayiramiz.

$$6^{\circ}\text{C} \cdot 2,5\text{ km} = 15^{\circ}\text{C}$$

$$36^{\circ}\text{C} - 15^{\circ}\text{C} = 21^{\circ}\text{C}$$

Javob: $+21^{\circ}\text{C}$

2. Atmosfera bosimi A nuqtada 320 mm simob ustunini, B nuqta 560 mm simob ustunini tashkil etadi. Agar B nuqtada havo harorati $+2^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, A nuqtadagi haroratni aniqlang.

Yechish:

Bosim orqali ikki nuqta orasidagi balandlikni topamiz va harorat o'zgarish qoidasidan foydalanamiz.

$$560-320=240 \text{ mm sim.ust}$$

$$240 \cdot 10=2400 \text{ m}$$

$$2400\text{m}=2,4 \text{ km}$$

$$2,4\text{km} \cdot 6^{\circ}\text{C}=14,4^{\circ}\text{C}$$

Yuqoridagi masaladan ko'rinib turibdiki B nuqta A nuqtadan pastda joylashgan. A ga ko'tarilgan sari harorat pasayib boradi. Natijada:

$$2^{\circ}\text{C}-14,4^{\circ}\text{C}=-12,2^{\circ}\text{C}$$

Javob: $-12,2^{\circ}\text{C}$

3. Okean tubiga qarab exolotdan yuborilgan tovush to'lqini 4,2 sekundda yetib borgan bo'lsa, okean chuqurligini aniqlang.

Yechish:

Suvda tovush tezligini ketgan vaqtga ko'paytiramiz:

$$1500 \cdot 4,2=6300 \text{ m}$$

Javob: 6300 m

4. Suv yuzida harorat $+10^{\circ}\text{C}$, suv ostidagi harorat $+7^{\circ}\text{C}$ ekanligi ma'lum bo'lsa, suv havzasining chuqurligini aniqlang.

Yechish:

Yuqoridagi haroratdan pastdagi haroratni ayiramiz va chiqqan natijani 2°C ga bo'lamiz natija km da chiqadi. Chiqqan natijaga suv harorati 300-350 m ga o'zgarmasligini inobatga olib, ushbu qiymatlardan birini qo'yamiz. Ko'pincha 350 m qo'shiladi.

$$10-7=3^{\circ}\text{C}$$

$$3:2=1,5 \text{ km}$$

$$1500+350=1850 \text{ m}$$

Javob: 1850 m

5. O'zbekiston aholisi 2021-yil 1-iyul oyidagi ma'lumotga ko'ra 34 mln 860,17 ming kishi bo'lib, shundan 17 mln 604,386 ming kishi shaharlarda istiqomat qilmoqda. Urbanizatsiya darajasini aniqlang.

Yechish:

Jami aholini 100%, shahar aholisini X% deb olib proporsiya tuzamiz.

$$34860017 \text{ — } 100\%$$

$17604386 \text{ — } X\%$

$X\% = 17604386 \cdot 100 : 34860017 = 50,5\%$

Javob: 50,5%

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Q. Bahromov, G. Halimova. Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti – 2017
2. Atlas. Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi. 5 sinf. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, 2017.
3. Z.B. Sangirova, K.T. Suyarov, M.T. Umaraliyeva va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinflari uchun tabiiy fanlar kitobi. Toshkent – 2022
4. M. Mirakmalov, M. Avezov, Y. Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. T.: «Fan va texno- logiya», 2015
5. https://znanio.ru/media/prezentatsiya_po_geografii_na_temu_atmosfernoe_davlenie_6_klass-270586
6. <https://info.wikireading.ru/71506>